

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODEL SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI

Radjapov Bunyod Madirimovich

Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada transformatsion iqtisodiyot sharoitida mahalliy boshqaruv tizimining yangilanishi, xususan, Urganch shahridagi raqamli modullar orqali shakllanayotgan boshqaruv modeli tahlil qilingan. Fuqarolarning murojaatlarini onlayn qabul qilish, resurslarni nazorat qilish va mahalla darajasida monitoring kabi yoʻnalishlardagi texnologik tajribalar oʻrganilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyot bilan taqqoslash asosida Urganch modelining amaliy va nazariy salohiyati aniqlangan. Maqola ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan yakunlangan.

Kalit soʻzlar: Transformatsion iqtisodiyot, raqamli boshqaruv, aqlli shahar, Urganch tajribasi, mahalliy boshqaruv, texnologik innovatsiya, shahar infratuzilmasi.

Аннотация

В статье проанализирована модернизация системы местного управления в условиях трансформационной экономики, в частности, на примере внедрения цифровых модулей в городе Ургенч. Изучены технологические решения в сферах онлайн-обращений граждан, контроля ресурсов и мониторинга на уровне махаллей. На основе сравнительного анализа с международным опытом выявлен теоретический и практический потенциал ургенчской модели. Статья завершается научно обоснованными рекомендациями.

Ключевые слова: трансформационная экономика, цифровое управление, умный город, опыт Ургенча, местное управление, технологические инновации, городская инфраструктура.

Abstract

The article analyzes the renewal of local governance within the context of a transformational economy, with a focus on Urgench city's emerging digital management model. Technological practices such as online citizen feedback, resource monitoring, and neighborhood-level control are explored. A comparative analysis with international cases highlights the practical and theoretical potential of the Urgench experience. The study concludes with evidence-based policy recommendations.

Keywords: transformational economy, digital governance, smart city, Urgench case, local administration, technological innovation, urban infrastructure.

KIRISH

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda transformatsion bosqichdan oʻtmoqda. Bu jarayon markazlashgan boshqaruvdan bozor mexanizmlariga asoslangan, innovatsion va texnologik yondashuvlarga yoʻnaltirilgan tizimga oʻtishni nazarda tutadi. Transformatsion iqtisodiyot sharoitida mahalliy boshqaruv, ayniqsa shaharlar darajasida, zamonaviy boshqaruv vositalarini joriy etish

orqali aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shahar infratuzilmasi va boshqaruvi tizimlarining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi "aqlli shahar" konsepsiyasining amaliy ifodasi hisoblanadi. Garchi O'zbekistonda bu model to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, ayrim hududlarda – xususan Urganch shahrida – muayyan funksional modullar shaklida raqamli boshqaruv tajribalari boshlangan. Fuqarolarning murojaatlarini onlayn qabul qilish, kommunal xizmatlar monitoringi, chiqindilarni boshqarish, mahalla darajasidagi faoliyat nazorati hamda jamoat transportini tahlil qilish kabi yo'nalishlarda dastlabki texnologik qadamlar tashlangan.

Mazkur maqolada Urganch shahrida bosqichma-bosqich shakllanayotgan raqamli boshqaruv modellarining tahlili orqali transformatsion iqtisodiyotda mahalliy darajadagi innovatsion boshqaruv yondashuvlari o'rganiladi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u o'tish davri sharoitida shahar boshqaruvining yangi modelini shakllantirishga ilmiy asos beradi; amaliy ahamiyati esa mavjud texnologik yechimlarning integratsiyalashuvi va takomillashtirilishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transformatsion iqtisodiyot sharoitida shahar boshqaruvini raqamlashtirishga oid ilmiy izlanishlar ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi. Kurniawan va Zhang kabi olimlar [1][2] raqamli boshqaruv fuqarolar ishonchini oshirish va ijtimoiy resurslardan samarali foydalanishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlashadi. O'zbekistonda esa Shukhratov va Boboyorov [3], Ibragimov [4] kabi tadqiqotchilar raqamli xizmatlar, energiya infratuzilmasi va mahalla boshqaruvining elektron shakllarini amaliy tajriba bilan asoslashgan. Ularning ishlari Urganch shahrida bosqichma-bosqich joriy qilinayotgan texnologik modullar – "Go Urgench", "Термо 24", "М-назорат" va chiqindilarni GPS orqali nazorat qilish kabi tizimlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Davletov va Ahmetovning [6] transport tizimidagi raqamli optimallashtirish bo'yicha yondashuvlari ham Urganchdagi GPS asosida yo'lovchi oqimini tahlil qilish amaliyoti bilan uyg'unlikda ko'riladi.

Xalqaro doirada esa Gopalan [5] tomonidan Hindistondagi Ujjain shahrida "Smart City" elementlarining muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilishi misol sifatida taqdim etiladi. Bu tajriba Urganchda raqamli boshqaruvning real hayotga integratsiyalashuvi uchun muhim qiyosiy asosdir. Timurov va Ruzmetovning [11] iqtisodiy transformatsiya va raqamli mexanizmlar bo'yicha tahlillari esa mazkur jarayonlarning ijtimoiy boshqaruv bilan qanday uyg'unlashishini ochib beradi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ilgari surilgan nazariy fikrlar Urganch shahrida shakllanayotgan amaliyotlar bilan mos keladi. Bu esa ilmiy tavsiyalarni hayotga tatbiq qilishning muhim misoli bo'lib, Urganch tajribasini boshqa hududlar uchun ko'chiriladigan model sifatida ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, sifatli tahlil asosida olib borildi. Maqolada transformatsion iqtisodiyot sharoitida shahar boshqaruvining raqamli modellari, xususan Urganch shahrida bosqichma-bosqich shakllanayotgan raqamli tizimlar tajribasi o‘rganildi. Ma’lumotlar tahlili uchun ilg‘or xalqaro va milliy ilmiy manbalar, ochiq rasmiy hisobotlar, amaliyotda joriy etilgan texnologik modullar haqidagi ochiq ma’lumotlar asos bo‘ldi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali Urganch tajribasi Hindiston va Yevropa shaharlaridagi amaliyotlar bilan solishtirildi. Analitik yondashuv yordamida resurslarni boshqarish, murojaatlar ishlovi, mahalla nazorati va transport infratuzilmasi kabi yo‘nalishlardagi joriy texnologiyalar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi. Tadqiqotda umumiy lashma, tipologik taqqoslash va holat tahlili metodlaridan foydalanildi. Bu yondashuvlar raqamli boshqaruv tizimlarining transformatsion iqtisodiyotdagi ahamiyatini aniqlashga va Urganch tajribasining nazariy model sifatidagi salohiyatini baholashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan transformatsiyalashayotgan sharoitida mahalliy boshqaruv tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashuvi muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda ayniqsa shahar miqyosidagi boshqaruv institutlari faoliyatini raqamli texnologiyalar orqali yangilash, samaradorlikni oshirish va aholi ehtiyojlariga yanada moslashtirish kabi jihatlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Transformatsion iqtisodiyot – bu oddiy o‘zgarish emas, balki tizimli va chuqur modernizatsiyani talab etuvchi muhit bo‘lib, u boshqaruv madaniyatini, texnologik yechimlarni va qaror qabul qilish jarayonlarini tubdan yangilashni taqozo etadi.

Urganch shahri misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu hudud hali “Aqlli shahar” (Smart City) maqomini to‘liq olmagan bo‘lsa-da, turli texnologik bosqichlarda bo‘lgan pilot tizimlar orqali raqamli boshqaruv amaliyotining shakllanishi kuzatilmoqda. Jumladan, raqamli murojaatlarni qabul qilish, energiya resurslarini monitoring qilish, chiqindilarni boshqarish, mahalla faoliyatini nazorat qilish va shahar transporti yuklamalarini tahlil qilish kabi yo‘nalishlarda ayrim funksional elementlar joriy etilgan.

Avvalo, fuqarolarning shahar boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan raqamli platformalar tajribasi e‘tiborga molik. “Go Urgench” mobil ilovasi orqali fuqarolar o‘z murojaatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hokimiyatga yuborish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu tizimga sun‘iy intellekt algoritmlari orqali shikoyatlarni saralash, ustuvorlik darajasini aniqlash va tegishli bo‘limlarga taqsimlash imkoniyati biriktirilgan.



1-rasm. Raqamli murojaatlarni boshqarish strukturasi¹

¹ Muallif ishlanmasi

Shahar infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan issiqlik ta’minotida ham yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. “Термо 24” tizimi orqali qozonxonalar harorati doimiy nazorat ostida bo‘lib, har qanday og‘ish holatlari avtomatik aniqlanadi. Ushbu tizim qamrab olingan qozonxonalarda energiya sarfining kamayishi, ta’minotda barqarorlik va xizmat sifati oshganligi kuzatilmoqda. Bu esa bevosita byudjet tejamkorligiga, ijtimoiy barqarorlikka va xizmat sifati oshishiga xizmat qiladi.

2-jadval.

Urganchda transformatsion komponentlar tahlili¹

Yo‘nalish	Texnologiya	Bosqich	Natija
Issiqlik ta’minoti	“Термо 24” monitoring	Sinovli / qisman	30% gacha energiya tejalgan
Murojaat ishlovi	Go Urgench ilovasi	Boshlang‘ich	Murojaatlar samarali uzatilmoqda
Chiqindi boshqaruvi	GPS kuzatuv	Pilot darajada	Marshrutlar nazorat ostida
Mahalla monitoringi	“М-назорат” moduli	Ayrim sektorlar	Faoliyat intizomi oshgan
Transport tizimi	Yo‘lovchi oqim tahlili	Joriy qilingan	Jadval va yo‘nalish moslashtirilgan

Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish tizimida ham texnologik monitoring mexanizmlari joriy etilgan. “Тоза Худуд” DUK tomonidan chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha harakatlanayotgan avtomobillarga GPS qurilmalari o‘rnatilgan bo‘lib, ularning marshrutlari, to‘xtash vaqti, ish samaradorligi monitoring qilinmoqda. Bu tizim shahar tozaligini nazorat qilishda, xizmat sifati ustidan shaffoflikni ta’minlashda, fuqarolar ishonchini oshirishda muhim vositaga aylangan.

Mahalla darajasidagi boshqaruvda ham raqamli nazorat elementlari joriy etilmoqda. “М-назорат” moduli orqali mahalla yettiligi va boshqa ijtimoiy sektor vakillarining faoliyati real vaqt rejimida kuzatilib borilmoqda. Ushbu tizim orqali xodimlarning ishga kelish va ketish vaqti, xizmat joyidagi faoliyati, fuqarolar bilan aloqalari doimiy nazorat ostida bo‘lib, boshqaruvdagi intizom kuchaygan. Bu tizim ayrim mahallalarda pilot tarzda joriy etilgan bo‘lsa-da, dastlabki natijalari ijobiy baholanmoqda.

Shahar transport infratuzilmasini boshqarishda ham zamonaviy tahliliy vositalar qo‘llanilgan. Aholi oqimlarini o‘rganish, talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash asosida ayrim yo‘nalishlarga qo‘shimcha transport vositalari yo‘naltirilgan. GPS tahlili va yo‘lovchi oqimi kuzatuvlari asosida transport harakat jadvali qayta ko‘rib chiqilgan. Bu esa aholi harakatchanligini qulaylashtirib, transport yuklamalarini muvozanatlashga yordam bergan [6].

¹ Muallif ishlanmasi

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, Urganchda joriy etilayotgan texnologik modullar to‘liq tizimli “aqlli shahar” modeli darajasiga yetmagan bo‘lsa-da, sifat jihatidan o‘rta bosqichni ifodalaydi.

3-jadval.

Urganch tajribasining xalqaro amaliyot bilan taqqoslanishi¹

Shahar (mamlakat)	Texnologiya	Bosqich	Ahamiyati
Ujjain (Hindiston)	CCTV, mobil ilova, AI	Tadbirlar davrida	Katta yig‘inlarda boshqaruv sinovi
Tallinn (Estoniya)	Yagona raqamli boshqaruv	To‘liq	Har bir xizmat integratsiyalangan
Urganch (O‘zbekiston)	Modullar (Go Urgench, М-назорат, GPS)	Bosqichma-bosqich	Mahalliy darajada integratsiya boshlangan

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tajriba shuni anglatadiki, Urganch shahrida bosqichma-bosqich shakllanayotgan raqamli boshqaruv tizimlari transformatsion iqtisodiyot sharoitiga moslashuvchan, ehtiyotkorlik bilan yo‘lga qo‘yilgan va real ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan modeldir. Bu yondashuv boshqa hududlar uchun ham amaliy va nazariy asosga ega bo‘lishi mumkin. Agar mavjud modullar o‘zaro integratsiyalashsa, yagona boshqaruv platformasiga birlashsa, Urganch O‘zbekistonda birinchi to‘laqonli “aqlli shahar” modelining poydevoriga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘rganilgan materiallar asosida aniqlanishicha, Urganch shahrida raqamli boshqaruv tizimlari to‘liq “Aqlli shahar” modeli darajasiga yetmagan bo‘lsa-da, amaliyotda bosqichma-bosqich shakllanayotgan modullar orqali transformatsion iqtisodiyot talablariga mos harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, murojaatlarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni nazorat qilish, mahalla darajasida monitoring o‘rnatish hamda transport yuklamalarini raqamli tahlil qilish yo‘nalishlarida ilk bosqichdagi texnologik yechimlar joriy etilgan. Bu jarayonlar shahar boshqaruvining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Urganch shahrida mavjud raqamli modullarni yagona integratsiyalashgan boshqaruv platformasiga birlashtirish maqsadga muvofiq.

2. “Go Urgench”, “М-назорат” va “Термо 24” kabi ilovalar faoliyatini bir-biri bilan muvofiqlashtirish orqali fuqarolar murojaatlaridan tortib, infratuzilma monitoringigacha bo‘lgan jarayonlarni avtomatlashtirish lozim.

¹ Muallif ishlanmasi

3. Raqamli boshqaruv jarayonlarini tahlil qiluvchi mustaqil indikatorlar va baholash tizimlari ishlab chiqilishi kerak.

4. Mahalla va tuman darajasida boshqaruvga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli treninglar tashkil etish zarur.

5. Tajribani boshqa hududlarga tatbiq etishdan avval, Urganch modeli asosida qamrovli pilot dastur ishlab chiqilishi lozim.

Urganch shahrida boshlangan bu raqamli boshqaruv tajribasi, to'g'ri yo'naltirilsa, O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ham takrorlanadigan, hayotga yaqin va iqtisodiy samaradorlikka erishuvchi modelga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matyusupov, B., Khodjaniyazov, E., Masharipova, M., & Gurbanov, F. (2024). The concepts of Smart Cities, Smart Tourism Destination and their Interrelationship. BioConf MSNBAS 2024. <https://www.bioconf.org>

2. Saydametova, F., Beketov, A., Khalimova, S., & Yunusov, A. (2022). Development of the network of urban roads and streets (on the example of the city of Urgench). Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 31, 55–61. <https://acta.polito.uz>

3. Zhang, L. (2023). Research on economic digitization and social governance coordination mechanism in smart city construction. Journal of Sociology and Education, Issue 7. <https://www.socedu.cn>

4. Ruzmetov, A., & Khudaybergenov, T. A. (2023). Survey of IoT application layer protocols. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10471669>

5. Rohit, Y. G., & Tiwari, A. K. (2025). Innovative approaches for transformative urban governance in India: A case of Ujjain Maha Kumbh. International Journal for Multidisciplinary Research, 7(5). <https://doi.org/10.36948/ijfmr.2025.v07i05.56516>

6. Omarov, J. A. (2022). Research of passenger traffic in public transport of the city of Urgench. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12). <https://giirj.com>

7. Zhang, X., Li, M., & Li, D. (2025). Mechanism and effectiveness of big data empowering grassroots governance. SSRN Electronic Journal. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=5607132

8. John, B., Shrestha, N., & Anshul, V. (2024). Developing a privacy-first framework for secure and ethical deployment of AI models. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/37670115>

9. Das, S., & Raina, R. (2025). Geospatial AI and employment opportunities in India's digital economy. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/396353624>

10. Akhmetshin, E., Nemtsev, A., Shichiyakh, R., Shakhov, D., & Dedkova, I. (2024). Evolutionary algorithm with deep learning based fall detection on Internet of Things environment. Fusion: Practice and Applications, 14(2), 132–145. <https://doi.org/10.54216/FPA.140211>

11. Aliyev, E., & Hasanov, A. (2021). Smart solutions for sustainable urban development: A case of post-Soviet cities. E3S Web of Conferences, 03010. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202131003010>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**